

“TASDIQLAYMAN”
Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari bo‘yicha
texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi
ekspert komissiya rais o‘rinbosari



J. Maxsudov

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga
solish sohasidagi ekspert komissiyasining
2-son BAYONI**

Toshkent shahri
(Videokonferensaloqa)

17.09.2024 y.

Raislik qiluvchi: J. Maxsudov – Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga
solish sohasidagi ekspert komissiya rais o‘rinbosari

**Ekspert komissiya
a‘zolari:** B.Smanov, M.Yuldashev, D.Dusmatov,
M.Maxmudov, Sh.Meliboyev, A.Xashimxodjayev,
V.Hakimov, M.Ochilov ekspert komissiyasi
a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

Kun tartibi:

**“Texnik vositalarning elektromagnit moslashuvi to‘g‘risidagi texnik
reglament” loyihasini ko‘rib chiqish.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevraldagi
“O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-91-son qarorining 2-ilovasida tasdiqlangan
Texnik reglamentlarni qayta ko‘rib chiqish va yangilash dasturiga muvofiq Raqamli
texnologiyalar vazirligiga “Radiotexnika, elektron va elektr jihozlarining
elektromagnit nurlanish xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha texnik reglament” ni
takomillashtirish topshirilganligi yuzasidan Komissiya a‘zolariga axborot berildi.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirligi buyruqlari bilan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiya tuzildi.

Mazkur buyruqlarga muvofiq yig'ilishni o'tkazish maqsadi, komissiya a'zolarining vazifalari va huquqlari sanab o'tildi.

Texnik reglament loyihasini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etgan mutaxassislar tomonidan Texnik reglamentning maqsadi, qo'llash sohalari, texnik vositalarga qo'yilgan talablar va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilganligi to'g'risida ma'lumotlarni yig'ilish ishtirokchilariga ma'lum qildilar. Jumladan:

Bugungi kunda respublika hududida muomalaga chiqariladigan texnik vositalarning elektromagnit moslashuvi bo'yicha inson hayoti va sog'lig'ini, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashda, ularning vazifasi, xavfsizligi va energetik samaradorligiga nisbatan iste'molchilarni chalg'itadigan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llash va bajarish uchun majburiy talablarni belgilovchi "Texnik vositalarning elektromagnit moslashuvi to'g'risidagi texnik reglament" loyihasi yuqorida qayd etilgan topshiriqqa muvofiq "UNICON.UZ" MChJ bilan birgalikda "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan talablar asosida ishlab chiqilganligi;

2024-yil 28-fevraldagi PQ-91-son qarori bilan tasdiqlangan Dasturda texnik reglamentning nomi "*Radiotexnika, elektron va elektr jihozlarining elektromagnit nurlanish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha*" degan umumiy masala sifatida keltirib o'tilganligi;

Radiotexnika, elektron va elektr jihozlari boshqa turdagi uskunalalar bilan bir qatorda texnik reglamentning texnik jihatdan tartibga solish obyekti bo'lganligi va bunday nomlanish texnik reglamentning ta'sir doirasini cheklashi mumkinligini, ya'ni butun elektromagnit moslashuv sohasini qamrab olmasligini inobatga olib, Dastur doirasidan chiqmagan holdi radiotexnika, elektron va elektr jihozlarining elektromagnit nurlanish xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oluvchi "Texnik vositalarning elektromagnit moslashuvi to'g'risida texnik reglament" deb nomlash taklif qilindi. Bu masalada Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli organ hisoblangan O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan ham tegishli ishlar olib borilganligi;

2016-yil 21-noyabrdagi qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Texnik vositalarning elektromagnit mosligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament" 389-son qarori bugungi kunda amalda qo'llanilayotganligi va aynan shu hujjatni takomillashtirish va amaldagi talablarga muvofiqlashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqariladigan texnik vositalarning elektromagnit moslashuvini ta'minlashda qo'llash va majburiy talablarni belgilash maqsadida to'liq qayta ko'rib chiqilganligi. Shuningdek, amaldagi texnik reglament

rus tilida bo'lganligi sababli "Davlat tili haqida"gi Qonunning 8-moddasiga asosan, mazkur Texnik reglament davlat tilida yangi tahrirda ishlab chiqilganligi;

Amaldagi "Texnik vositalarning elektromagnit mosligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament" (*Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 21-noyabrdagi 389-son qarori*) va uning o'rniga ishlab chiqilgan reglament loyihasi orasidagi asosiy farqlar, kiritilgan o'zgartirishlar va muvofiqlikni baholash qismi to'g'risida ma'lumotlar yig'ilish qatnashchilariga ma'lum qilindi.

Ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi va unga ilova Texnik reglament loyihasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilganligi, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilganligi va tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha tegishli vazirlik va idoralardan xulosalar olinganligi to'g'risida ma'lumot berildi. Shuningdek, Adliya vazirligidan Huquqiy ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosa ham olinganligi ta'kidlandi.

Vazirlik va idoralar, jamoatchilik fikri va Adliya vazirligidan kelib tushgan taklif va e'tirozlar asosida Loyiha takomillashtirilganligi bildirib o'tildi.

Loyihaning muhokamasi jarayonida quyidagi fikrlar bildirildi:

Texnik reglamentning tatbiq etish obyektlari ro'yxatini takomillashtirish shuningdek, ayrim yo'nalishlarni tatbiq etilmaydigan sohalar sifatida e'tirof etilayotganligi sababini aniqlashtirish so'raldi.

Shuningdek, mazkur reglament loyihasiga radiochastota spektridan foydalanish uchun qo'yiladigan talablarni keritish taklif qilindi.

Takliflarga javoban, texnik reglament tatbiq etilishi va tatbiq etilmasligi sohasining ro'yxati amaldagi texnik reglamentga muvofiq shakllantirilganligi ma'lum qilindi. Radiochastota spektridan va radioelektron vositalardan foydalanish masalasi O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Radiochastota spektridan foydalanish sohasida ruxsat etish hamda radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi 801-son qarori bilan tartibga solinishi ma'lum qilindi.

Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan Xalqaro tashkilotlar tomonidan mahsulotlarga berilgan muvofiqlikni baholash natijalari O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinishi borasida savol bilan murojaat qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining "“Muvofiqlikni baholash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2015-yil 14-oktabrdagi 292-son qarori talablariga muvofiq respublika tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish xalqaro shartnomalarni hisobga olingan holda, Vazirlar Mahkamasi tomonidan

belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerakligi bo'yicha ma'lumot berildi.

Yig'ilish yakunida reglament loyihasi taqdim etilgan tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiqligi, ekspertiza natijalarini baholash maqsadida ovozga qo'yildi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra:

Rozilar – 17 ta;

Qarshilar – mavjud emas;

Betaraflar – mavjud emas.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan taklif va fikrlar hamda ovoz berish natijalarini inobatga olgan holda, **qaror qilindi:**

1. "Texnik vositalarning elektromagnit moslashuvi to'g'risida"gi texnik reglament loyihasi ekspertiza natijalari ijobiy deb topilsin.

2. Komissiya kotibi (Maxmudova) bir hafta muddatda mazkur bayonnoma va ekspertiza xulosasi nusxalarini komissiya a'zolariga yuborilishini ta'minlasin.

Komissiya kotibi

N.Makhmudova

